

CAUSES AND FACTORS OF VIRTUALITY IN THE LIFE OF YOUNG PEOPLE

Dilmurodov Dilmurod Dilshodjon o'g'li

*3rd year student of the Faculty of International Relations of the University of World
Economy and Diplomacy
dilmurodov3033@gmail.com*

Imamov Javoxir Fayozovich

*University of World Economy and Diplomacy
2nd year student of the Faculty of International Economics and Management
imamovjavoxir@gmail.com*

Annotation: This article discusses the increasing influence of the virtual world in the lives of young people today, the socio-psychological features of addiction to the Internet and computer games in teenagers.

Keywords: information technology, virtual world, virtualization, social consciousness, communication culture

Introduction

Biz yashab turgan bu olamda axborot texnologiyalari misli ko'rilmagan darajada rivojlanmoqda va kompyuterlar hattoki juda ham zarur narsalarga aylanib bormoqda. Albatta, internetning afzallik tomonlarini hammamiz yaxshi bilamiz. Ko'pchilik yoshlar undan nafaqat turli xil ma'lumotlar qidirish, balki virtual hayotga qandaydir ma'noda qochish uchun ham ijtimoiy tarmoqlardan foydalanadilar.

Virtual olam nima? Virtual olam deganda biz, avvalo, insoniyat tomonidan axborot texnologiyalardan foydalangan holda yaratilgan borliqni tushunamiz. Ular sizga haqiqiy hayotdan butunlay uzoqlashishga imkon beradi. Turli xil yangi texnologiyalar haqida tushunchaga ega bo'lib, yoshlar virtual hayotga shoshilishmoqda, lekin ular virtual haqiqatning psixologik ta'siri xavfli bo'lishi mumkinligini unutishadi yoki undan umuman xabarlarini yo'q.

Bugungi kunda turli xil hayotimizda uchrab turadigan muammolardan qochib, umuman boshqa olamga tushib ketishingizga imkon beradigan ko'plab texnologiyalar mavjud. Virtual haqiqat tizimining rivojlanishi shu darajaga yetganki, inson tom ma'noda ikkinchi dunyoda yashaydi, o'zini virtual dunyoga to'liq singdiradi. Virtual olam bizga boshqa dunyoga sayohat qilish, dam olish va muammolardan holi bo'lish, shuningdek yangi hissiyotlarni olish kabi imkoniyatlarni beradi, lekin uning salbiy tomonlari ham bor, albatta. Virtual dunyoga tez-tez sho'ng'ish bilan, odam o'z virtual qahramonining roliga juda odatlanib qolishi mumkin, bu uning hayotdagi xatti-harakatlariga ta'sir qilishi turgan gap. Shuningdek, inson vaqt boshqaruvini yo'qotishi va antisotsial bo'lib qolishi ham mumkin.

Ijtimoiy tarmoqlarga tobelik turli xildagi psixologik muammolarni ham keltirib chiqaradi. Qaramlik, avvalo, turli ziddiyatli xatti-harakatlar, surunkali depressiya, real ijtimoiy munosabatlardan virtual dunyoni afzal ko'rish, jamiyatdagi moslashish qiyinchiliklari, ijtimoiy noqulaylik, internetdan foydalanish qobiliyatining susayishiga olib kelishi mumkin. Ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish, o'smir shaxsida "o'qish" va "o'rganish"ga intilish o'rniga "izlash"ni afzal ko'rishni keltirib chiqaradi.

Hozirgi kunda ko'pchilik yoshlarimiz ota-onalari tomonidan taqiqlangan saytlarga tashrif buyurishlarini ochiq tan olishadi. Bu saytlar pornografiya va o'z joniga qasd qilish, qimorbozlik va terrorizmni targ'ib qiluvchi, video o'yinlarga qaramlik va millatchi tashkilotlarni aks etiruvchilar hisoblanadi. Bundan tashqari, ko'plab buzg'unchilik maqsadida tashkil etilgan saytlar o'smir yoshdagi yoshlarimizda ruxsat etilganlik va jazolanmaslik ilyuziyasini shakllantirishini o'z oldiga vazifa qilgan. Bu ijtimoiy normalarni buzilishi uchun javobgarlik hissini yo'qolishi, axloqiy qadriyatlar tizimini izdan chiqarishi mumkin.

Ijtimoiy tarmoqlarga qaram shaxslarning asosiy muammolari o'zini o'zi qabul qilish sohasi sanaladi. Qaram o'smir yoshlar atrofidagi insonlar bilan yaqin muloqot qilishda va o'zlarini namoyon etishida ko'plab qiyinchiliklarga uchrashadi. Ularda ko'p hollarda o'z "Men"i va tanasidagi zarur ehtiyojlarini anglashda ham ko'plab jiddiy muammolar kuzatiladi. Bundan tashqari o'z-o'ziga baho hamda o'z-o'zini qadrlash an'analari ham jiddiy putur yetishi turgan gap.

Hozirgi kunda yoshlarimiz turli xil kompyuter o'yinlari hamda ijtimoiy tarmoqlar soni ortib borayotgan hamda rivojlanayotgan davrda ulg'ayishmoqda. Bu, albatta, quvonarli hol. Lekin har narsada me'yor bo'lgani yaxshi. Bugun biz o'sib kelayotgan bolalarimizga virtual olamning haqiqiy olam emasligi haqida doimo eslatib borishimiz shart. Ba'zi hollarda bolalar kattalar nazoratisiz yoki ruxsatisiz ijtimoiy tarmoqlarga kirish imkoniyatiga ega bo'lib qoladilar. Ular internetda sayr qilishar ekan, ular umuman kirish mumkin bo'lmagan turli xil saytlarga duch kelishlari mumkin. Tabiiyki, bunday saytlar qiziquvchan o'smir yoshdagilarni o'ziga ko'proq jalb etadi. Lekin tanganing ikkinchi tomonini ham yoddan chiqarmasligimiz zarur. Barchamizga ma'lumki, birorta xatti-harakatni amalga oshirishda yoshlarga, ayniqsa, bolalarga qanchalik ruxsat berilmasa, ularda u narsa shunchalik yuqori darajada yuqori qiziqish uyg'otadi.

Yoshlarimiz ijtimoiy tarmoqdagi nosogʻlom turmush tarzidan axborot beruvchi ayrim manbalarga duch kelib qolsalar, ularga yanada qiziqib, oʻsha axborotlarga alohida eʼtibor qaratishlari ham turgan gap. Shu sababdan ota-onalar farzandlari tugʻilgan kunidan boshlab ularga issiq choynak, qozonlarga yaqinlashish, pichoq, qaychi kabi oʻtkir uchli narsalarga tegish mumkin emasligini onglariga singdirganlari kabi, ijtimoiy tarmoqdagi ayrim axborotlar ham xavfli ekanligini tushuntirishlari, ularda axborotlardan toʻgʻri foydalanish salohiyatlarini shakllantirishlari zarur boʻladi.

Albatta, internet tarmogʻi manbalari zamonamiz yoshlari bilim doirasini, dunyoqarashini kengaytirishi bilan bir qatorda, ayrim jihatlariga koʻra, ularning tarbiyasiga nafaqat salbiy, balki xavfli taʼsir koʻrsatishi ham mumkinligini unutmasligimiz kerak. Yaqindagina ota-onalar farzandlarining kompyuter oʻyinlariga berilib, ularga bogʻlanib qolishlari xavfidan qoʻrqib, uni oldini olishga harakat qilgan boʻlsalar, bugungi kunda bu xavfga yana ijtimoiy tarmoqlar xavfi ham qoʻshildi. Yoshlarning koʻchalardagi muloqotlari hozirgi kunda haqiqiy hayotdan asosan, aynan, chegarasi yoʻq ijtimoiy tarmoqlarga koʻchdi, desak mubolagʻa boʻlmaydi.

Mazkur muloqotlar yoshlarga shunisi bilan ham qiziqki, avvalo, ijtimoiy tarmoqlarda oʻzlariga koʻproq “doʻst” orttirish imkoniyati mavjud. Internet orqali muloqot qilarkan, yoshlar oʻzlarini omadli bola qilib koʻrsata olish imkoniyatiga ham egalar. Oʻzlarini oʻzga shaxslar roʻlida taqdim etib, turli yolgʻon dunyolarga berilib ketishlari ham ehtimoldan holi emas. Tortinchoq va uyatchang yoshlar uchun ehtimol tarmoqdagi muloqotlarning foydali jihatlarini bildir, vaqti kelib, haqiqiy hayotda bu muloqotlar oʻz samarasini berishi ham mumkin.

Hozirgi vaqtda biz internetni deyarli barcha qiziqishlarimiz qondirish makoni, deb bemalol ayta olamiz. Baʼzida ijtimoiy tarmoqda ayrim axborotlarni izlab oʻtirishning ham hojati boʻlmay qoladi. Ular har yerda oʻzlari chiqib qolishi sababli osongina topish mumkin. Tadqiqotlarga koʻra, pedagog va psixologlar bugunga qadar virtual muloqot yoshlarning shaxsiy shakllanishiga qanday taʼsir etishi haqida hali bir toʻxtamga kelmaganlar. Ayrim shaxslar bu faqat salbiy xususiyatlarnigina shakllantiradi deb hisoblab, yoshlarning insonlararo munosabatlarida oʻzlarini tutish, his-tuygʻularini namoyon etish va mimikalariga yomon taʼsir etishini taʼkidlasalar, boshqalar virtual kommunikatsiyani zamonaviy muloqotning juda qulay va yengil usulidir, deb hisoblaydilar.

Hozirgi vaqtda ayrim ommaviy ijtimoiy tarmoqlarda 13 yoshga toʻlmagan bolalarni roʻyxatga olmaslik uchun turli xil cheklovlar qoʻyilgan. Ayrim kompyuter operatsion tizimlarida ham “ota-ona nazorati” funksiyasi boʻlib, bolalarni tizimdan foydalanish vaqtlariga cheklov qoʻyish imkoni bor. U kompyuterdan oʻrnatilgan muddatdan ortiqcha foydalanish imkonini bermaydi va avtomatik ravishda ishini toʻxtatadi.

Yoshlarni ijtimoiy tarmoqlarda muloqot qilishga oʻrgatib borishda, ularga tarmoqda umuman, oʻz shaxsiy maʼlumotlari, uy telefoni raqami, manzili, shuningdek, yaqinlarining shaxsiy maʼlumotlarini berish mumkin emasligini qattiq tushuntirish zarur. Virtual “doʻstlari”

orasida yomon niyatli kimsalarga duch kelish xavfi va ular bilan haqiqiy hayotda uchrashishlari, ishonuvchan odatlariga ko'ra begonalar bilan dildan suhbatlashishlari xavfini alohida ta'kidlash zarur. Bunday muloqotlar ko'pincha kiberjinoyatchilar uchun juda qulay sharoit ekanligini har bir o'smir bilishi kerak.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, yoshlarni fan-texnika yutuqlari bilan tanishtirib borish albatta kerak, lekin uning salbiy oqibatlarini ham hisobga olgan holda, doimiy nazorat va tushuntirish ishlarini ular ongiga singdirib borilishi maqsadga muvofiq hisoblanadi. Axborotlardan foydalanish bo'yicha o'smirlarda sog'lom immunitetni hosil qilish, ijobiy tomonlarini o'rgatish bilan birga, salbiy oqibatlarini ham eslatib o'tish lozim. Ayrim hollarda virtuallashuv jarayonining jaddalashuvi o'smirda ijtimoiy munosabatlarni yomon kechishiga olib kelishi ham ehtimoldan holi emas.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Davletshin M., Do'stmuhammedova Sh., Mavlanov M., To'ychiyeva S. "Yosh va pedagogic psixologiya". O'quv metodik qo'llanma. T.: 2004
2. Niyozov M.B. Axborot kommunikatsion texnologiyalarining o'quvchilarga psixologik ta'siri. T.: 2019